

## Talabalarning chet tilda nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda audio va videolardan foydalanish texnologiyasi

Manzila Nuriddinovna Khabibova  
khabibovamanzils@gmail.com  
O'qituvchisi  
Buxoro davlat tibbiyot instituti

**Annotatsiya:** Mazkur maqola multimedia vositalari, masalan, onlayn platformalar, mobil ilovalar, YouTube videolar, audio resurslar, virtual sinflar va podkastlar yordamida talabalarning chet tilda nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish jarayonini tahlil qiladi. Xususan, maqola audio va video materiallarining kommunikativ, vazifaga asoslangan, kontentga asoslangan va loyiha asoslangan o'qitish yondashuvlarini qanday qo'llab-quvvatlashini muhokama qiladi. Maqolada audio-vizual materiallarni o'qitishda samarali metodologiyalarni ishlab chiqish muhimligi ta'kidlanadi, chunki ular talabalarning gapirish, tinglash va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini sezilarli darajada oshiradi. Bundan tashqari, interaktiv o'qitish metodlari va "aqli talaba" didaktik texnologiyasining til o'rganishdagi umumiy faoliyatni kuchaytirishdagi ijobiy ta'sirlari ko'rsatilgan. Turli ilmiy izlanishlar va xalqaro tajribalarni tahlil qilib, maqola multimedia texnologiyalaridan foydalanish orqali nutqiy kompetensiyani rivojlantirish, motivatsiyani oshirish va til o'rganish jarayonini tezlashtirish uchun amaliy asoslarni taklif qiladi.

**Kalit so'zlar:** Audio-vizual texnologiyalar, nutqiy kompetensiya, chet tilda o'qitish, ingliz tili o'qitish, multimedia vositalari, podkastlar, interaktiv o'qitish, raqamli ta'lim.

## Технология использования аудио и видеоматериалов в развитии речевой компетентности студентов на иностранном языке

Манзила Нуриддиновна Хабибова  
[khabibovamanzils@gmail.com](mailto:khabibovamanzils@gmail.com)  
Преподаватель

Бухарский государственный медицинский институт,

**Аннотация:** В данной статье рассматривается, как использование мультимедийных инструментов, таких как онлайн-платформы, мобильные приложения, видео на YouTube, аудиоресурсы, виртуальные классы и подкасты, способствует развитию коммуникативной компетенции студентов в иностранном языке. В частности, обсуждается, как аудио- и видеоматериалы поддерживают коммуникативный, ориентированный на задачи, контекстно-ориентированный и проектно-ориентированный подходы к обучению. Статья подчеркивает важность разработки эффективных методик интеграции аудиовизуальных материалов в процесс обучения, утверждая, что они значительно улучшают навыки говорения, слушания и критического мышления студентов. Кроме того, выделяются положительные эффекты интерактивных методов обучения и дидактических технологий "умного студента" для повышения общей вовлеченности студентов в процесс изучения языка. На основе анализа различных исследований и международного опыта, статья предлагает структуру использования мультимедийных технологий для развития коммуникативной компетенции, повышения мотивации и ускорения процесса обучения языкам.

**Ключевые слова:** Аудиовизуальные технологии, коммуникативная компетенция, изучение иностранных языков, обучение английскому языку, мультимедийные инструменты, интерактивное обучение, цифровое образование, обучение.

## Technology of using audio and video materials and development of students' speaking competence in foreign language

Manzila Nuriddinovna Khabibova  
[khabibovamanzils@gmail.com](mailto:khabibovamanzils@gmail.com)  
Teacher  
Bukhara State Medical University.

**Abstract:** *This article examines how the use of multimedia tools—such as online platforms, mobile apps, YouTube videos, audio resources, virtual classrooms, and podcasts—can foster the development of students' communicative competence in a foreign language. Specifically, it discusses how audio and video materials facilitate communicative, task-based, content-based, and project-based learning approaches. The article emphasizes the importance of developing effective methodologies for integrating audio-visual materials into teaching, arguing that they significantly improve students' speaking, listening, and critical thinking skills. Furthermore, it highlights the positive effects of interactive learning methods and the "smart student" didactic technology in enhancing students' overall engagement with language learning. Through the analysis of various research and international experiences, the article proposes a framework for using multimedia technologies to foster communicative competence, increase motivation, and accelerate the language learning process.*

**Keywords:** *Audio-visual technology, communicative competence, foreign language learning, English language teaching, multimedia tools, podcasts, interactive learning, digital education.*

### Kirish

So'nggi yillarda audio va video texnologiyalarining til o'rganishda integratsiyasi butun dunyo bo'ylab ta'lim innovatsiyasining muhim jihatiga aylangan. Ushbu texnologiyalar talabalarning til kompetensiyalarini, xususan ingliz va boshqa xorijiy tillarni o'rganishda sezilarli darajada yaxshilashga yordam beradi. Jahonda bugungi kunda audio va videolardan foydalanish texnologiyalaridagi innovatsiyalar o'quv jarayonining deyarli barcha sohalariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Xorijiy mamlakatlar tajribasi talabalarga zamonaviy axborot vositalari (onlayn platformalar, mobil ilovalar, YouTube videofilmlari va audio resurslar, virtual sinflar, raqamli o'yinlar, raqamli lug'atlar, ijtimoiy tarmoqlar) dan foydalangan holda ingliz tilini o'rgatish va o'qitish usullarini yaratish va takomillashtirish muhim amaliy qimmatga ega ekanligini ko'rsatmoqda. Jahon hamjamiyatida turli soha mutaxassislarining mediasavodxonlikka bo'lgan ehtiyoji oshib bormoqda. So'nggi yillarda ingliz va boshqa xorijiy tillarni chuqur o'rgatish, o'quv jarayoniga audio va videolardan foydalanish texnologiyalarini joriy etish masalalariga ustuvor ahamiyat berilmoqda.

Dunyoda yetakchi oliy ta'lim muassasalarida chet tilni o'qitishda audio va videolardan foydalanish masalalariga oid olib borilgan ilmiy tadqiqotlar chet tilda nutqiy kompetensiyani takomillashtirishga yo'naltirilgan o'ziga xos muqobil texnologiya, mashq va multimediali ta'lim dasturlaridan foydalanishning lingvometodik tizimini yaratishga alohida e'tibor qaratish kerakligini ko'rsatadi. Kommunikativ yondashuv asosida ingliz tilini o'qitish shaxs faoliyatiga yo'naltirilgan yondashuv (Learner Centered Approach) – lingvodidaktik yondashuv asosida talabalarda nutqiy kompetensiyani rivojlantirish real nutqiy vaziyatga asoslangan o'qitish (Task-based learning), kontekstga asoslangan o'qitish (Content-based learning) hamda loyihaga asoslangan o'qitish (Project based learning) masalalari bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish nazariy amaliy ahamiyatga ega bo'lib, bunda xorij mamlakatlari tajribalarini o'rganish va nutqiy kompetensiyani takomillashtirishga doir metodologik usullarni zamon talablaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish dolzarblashib bormoqda.

Hozirgi kunda o'rganilayotgan chet tilni muloqot tili sifatida o'qitishda kommunikativ kompetensiya polimorfik, ya'ni o'zida bir nechta kompetensiyalarni qamrab olgan tushuncha sifatida talqin qilinmoqda. Kommunikativ kompetensiya sotsiolingvistik tavsifga ega bo'lib, shaxsning kommunikativ faoliyati va turli ijtimoiy vaziyatlarda til va nutq qoidalarini (tinglab tushunish va gapirish), nutqiy strategiya va taktikalarni to'g'ri ishlatishi, muomala madaniyatini shakllanganligini ifoda etadi. Van Ekk kommunikativ kompetensiyani: lingvistik, ijtimoiy-madaniy, sotsiolingvistik, strategik, diskursiv, ijtimoiy komponentlardan tashkil topganligi bilan keng qamrovda izohlaydi (Sultonova N. 2022).

E.N. Zaretskayaning fikricha, kommunikativ faoliyat ma'lum tartibda amalga oshiriluvchi izchil harakatlar tizimi bo'lib, ularning har biri xususiy vazifalarni hal qilishga qaratilgan va muomala maqsadi tomon qo'yilgan o'ziga xos "qadam" sifatida ko'rib chiqilishi mumkin" (Zaretskaya, 1991). Taniqli tadqiqotchi A.N. Leontevning konsepsiyasiga tayangan holda, unda "kommunikativ faoliyat"ning, aniq strukturaviy komponentlardan iborat ekanini ko'rish mumkin (Leontev, 1975). Rus olimi O. Kazarseva fikricha, kommunikativ kompetentlik tug'ma qobiliyat bo'lmay, inson tomonidan ijtimoiy-kommunikativ tajribani egallash jarayonida shakllanuvchi qobiliyatdir (Kazarseva, 1997).

Chet tilni o'qitish jarayonida talabalarning nutqiy kompetensiyasini takomillashtirishning mazmuni, samarali shakl va metodlarini ishlab chiqish metodika fani oldida turgan dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Hozirda chet tilni o'qitishda zamonaviy axborot vositalaridan foydalanish va raqamlashtirish masalalariga katta e'tibor berilmoqda. Chunki zamonaviy axborot vositalaridan mashg'ulot jarayonida foydalanish katta ijobiy natijalar berishi allaqachon isbotlangan. Chet tilni o'qitishni raqamlashtirishda audio va video vositalarining keng qo'llanilishi takomillashib, quyidagi barcha yondashuvlarga jumladan, shaxs faoliyatiga va muloqotga (kommunikatsiyaga) yo'naltirilgan yondashuvlari maqsadlariga mos keladi. Shaxs faoliyatiga yo'naltirilgan yondashuv usullari faoliyatining diqqat markazida o'qituvchi emas, balki o'quvchi turadi. Aynan ushbu yondashuvdagi strategiyalar talabalarning kreativlik qobiliyatlari, mushohada yuritish, mustaqil qaror qabul qilish, faol ishtirokchi, mammolar yechimini topish kabi shaxsiy va psixologik xususiyatlarini rivojlantirishda yordam beradi.

Chet til o'qitish jarayonida video va audio materiallari o'rnini chet til o'qitish metodikasida mavjud imkoniyatlar kengligi bilan izohlash mumkin. Bu o'qituvchi faoliyatini osonlashtiradi va aniqlashtiradi. Muloqotga (kommunikatsiyaga) yo'naltirilgan mashqlar yordamida o'quv-imitatsiyali muloqotning qo'lga kiritilishiga va tabiiy-autentik usulga o'tish uchun qulay sharoit yaratiladi. Shuningdek, muloqotga yo'naltirilgan yondashuv tamoyillaridan nutqiy-fikrlash faolligi, yangililik, funksionallilik, vazifaviylik va vaziyatlilik tamoyillari hamda muloqotga yo'naltirilgan yondashuv yuzasidan fikrlar bayon etilgan. Audio va video materallarini ishlatish va tinglab tushunish orqali tinglovchilar yoki tomoshabinlar (o'quv guruhi) o'zaro bog'langan uchta funksiyani idrok etadi: 1) audio va video vositalarining iste'molchisi; 2) ta'lim faoliyatining obyekt va subyekt; 3) chet tilda muloqot jarayonidagi subyekt. Masalaning bu jihati zamonaviy audio va video materiallari, o'quv-tarbiya jarayonlarining barcha bosqichlarini jadallashtiradi. Didaktik nuqtayi nazardan muhim ahamiyat kasb etadigan audio va video materiallarini joriy etish orqali samaradorlikka erishiladigan bir nechta metodik maqsadlarni sanab ko'rsatishimiz mumkin. Ta'lim mazmuni va tarkibi, nazorat va o'qitishning tashkiliy shakllari, metodlari haqidagi tasavvurlarning o'zgarishi o'qitish jarayonida xususiy metodikani ham takomillashtirishni taqozo etadi. O'quv jarayonida audio va videolardan foydalanish texnologiyalarini qo'llash, pedagogik metodlarning samaradorligini oshirishga, pedagoglar mehnat faoliyatining o'zgarishiga, ish uslublarining takomillashishiga, pedagogik tizimlarning strukturaviy o'zgarishiga olib keladi. Chet el metodist olimlari audio va videolardan foydalanish texnologiyaga asoslangan darslarni rejalashtirish va tayyorlashda audio va video materiallariga alohida e'tibor qaratish lozimligini ta'kidlaydilar. Bu o'rinda darsni rejalashtirish va

dars ishlanmasini yozishda qo'llanilgan barcha metodlarda o'qituvchi oldiga an'anaviy beshta vazifa o'rni sakkizta vazifa bilan to'ldirilganligini inobatga olish muhimdir.

Talabalarning chet tilda nutqiy kompetensiyasini takomillashtirishda YouTube videomateriallari bilan ishlash metodikasidan foydalanish mumkin. Talabalarning chet tilda nutqiy kompetensiyasini takomillashtirishda YouTube videofilmi bilan ishlash texnologiyasini takomillashtirishda YouTube videomateriallarining afzallik tomonlari mavjud. Bunda ijobiy jihatlardan ayrimlari: birinchidan Youtube videofilmini talabalarga namoyish etish orqali vaqt tejalishiga erishiladi. Agar video vaqti tog'ri taqsimlangan (20-25 daqiqa) bo'lsa, shu vaqt ichida barcha nutqiy malakalarini rivojlantirish mumkin, bu kommunikativ faoliyat uchun foydali jarayon hisoblanadi. Ikkinchidan, videoni tez orqaga qaytarish va sekinlashtirib namoyish qilish imkoniyatlari bor, shu bilan birga, yaxshi anglash va tushunish uchun videoni to'xtatish, pauza qilish yoki takroran ko'rish mumkin. Uchinchidan esa ko'plab videolarda maxsus ovozli signallar va musiqalar mavjud bo'lib, bu o'quvchilarga muhokama qilish uchun qiziqarli mavzu bo'la oladi". Autentik video va kinomateriallarga asoslangan o'qitish metodikasi ustida rus olimlardan A.Y. Chikunova, Y.I. Verisokinalar G.A. Vorobyovlar ko'p izlanishlar olib borganlar. Shuningdek, J.Harmerning darsda videomateriallarni qo'llash texnikasi bo'yicha bergan tavsiyalari. Amerika olimlari S.Stempliskiy, B. Tomalinlar videomaterialarni chet tillarni o'qitishda maqsadli qo'llash usullari bo'yicha yaratgan adabiyotlari tadqiqot ishi uchun ilmiy manba bo'lib xizmat qilgan. Ilmiy manbalarda berilishicha YouTube videofilmdan foydalanish orqali o'qitilgan talabalarning o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichi, darslik yordamida o'qitilganlarga nisbatan yuqoriroq ekanligi aniqlangan, Mashg'ulotlarda YouTube yoki boshqa audio va videofilmdan foydalanish talabalarning nutqiy kompetensiyani takomillashtirish uchun samarali metod ekanligi isbotlangan. Bundan tashqari vizual media ya'ni filmlar, video, podkastlar va boshqa resurslar talabalarning tushunish qobiliyatlariga ijobiy ta'sir qiladi va rivojlantiradi degan fikrlar ham izohlangan. Talabalarning chet tilda nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishning interaktiv metodikasi va audio va videofilmlardan foydalanishning algoritmik tizimi "smart student" didaktik texnologiyasi asosida takomillashtirilgan va dars ishlanmasi ishlab chiqilganligi ishning samaradorligini oshiradi.

Nutqiy kompetensiyani takomillashtirishda podkastlar va videofilm texnologiyasidan foydalanish metodikasi samarali hisoblanadi. Podkast – bu zamonaviy axborot vositasi bo'lib, butun dunyo bo'ylab interenetda tinglash yoki ko'rish uchun mavjud bo'lgan audio yoki video yozuvdir. Podkast (podcast) Veb 2,0 ikkinchi avlod Veb texnologiyalari vositalaridan biri bo'lib, audio va videoyozuvlarni tinglash, yozib olish, tomosha qilish, yaratish va tarqatish, materiallarni ular bilan tarmoqda almashish va ularning yordamida munozaralar tashkillash oson va qulay bo'lgan ijtimoiy xizmatlar turidir. Internetda til sohiblari tomonidan yaratilgan autentik podkastlarni (masalan, BBC yangiliklari) va ta'limiy podkastlar (ta'lim maqsadlarida) yaratilgan podkastlarni topish mumkin. Podkastlar vositasida chet til o'qitish metodikasini ishlab chiqishda inobatga olinishi kerak bo'lgan podkastlar xizmatining didaktik xususiyatlari va metodik funksiyalari P.V. Sisoyev, M.N. Yevstigneyev va A.G. Solomatina ishlarida berilgan.

Audio va videolardan foydalanish texnologiyalarining ingliz tilini o'qitish jarayoniga joriy etilishi bilan talabalarning nutqiy kompetensiyasini takomillashtirish, ularning til o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, talabalarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish asosida til o'rganishga bo'lgan ishtiyoqini uyg'otish, til o'rganish intensivligini oshirish uchun ta'lim jarayonida audio va videolardan foydalanish texnologiyasi samarali usul hisoblanadi.

Ta'lim muassasalarida filmlardan foydalanishdagi umumiy to'siqlar ko'pincha logistika va pedagogik muammolarga bog'liq. O'qituvchilar filmlarni oqimlash yoki yuklab olish uchun zarur bo'lgan sifatli audiovizual uskunalar va ishonchli internet ulanishlariga kirishda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin (Xodjaev, 2022). Bundan tashqari, film mazmuni va o'quv dasturi o'rtasida mos kelmasligi mumkin, bu esa o'qituvchilarga o'quv maqsadlariga javob beradigan mos filmlarni topishni qiyinlashtiradi (Spring, 2014). Til to'siqlari ham katta qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin,

chunki talabalar maqsadli tildagi filmlarni tegishli subtitrlar yoki tarjimalarsiz tushunishda qiynalishi mumkin (Tsapro & Yakuba, 2015). Ushbu to'siqlar filmlarni sinfdagi o'qitishga samarali integratsiyalashuviga to'sqinlik qilishi, ularning o'quvchilarning nutq kompetensiyasiga potentsial ta'sirini cheklashi mumkin.

Byudjet va resurs cheklovlarini bartaraf etish uchun maktablar va o'qituvchilar bir nechta strategiyalarni qabul qilishlari mumkin. Bir yondashuv - mahalliy kutubxonalar yoki kino resurslariga arzon narxlarda yoki hatto bepul kirishni taklif qiladigan ta'lim muassasalari bilan hamkorlik qilishdir (Tsapro & Yakuba, 2015). Yana bir strategiya ta'lim tashabbuslarini qo'llab-quvvatlovchi tashkilotlardan grantlar yoki homiylik izlashni o'z ichiga oladi, bu esa zarur jihozlar va resurslarni sotib olish uchun mablag' bilan ta'minlaydi (Research Gate., 2023). Bundan tashqari, o'qituvchilar byudjet cheklovlari innovatsion o'qitish usullariga to'sqinlik qilmasligini ta'minlaydigan o'quv filmlarining keng tanlovini taklif qiluvchi bepul onlayn platformalardan foydalanishlari mumkin. Mavjud resurslardan ijodiy foydalanish orqali maktablar filmlarni o'z o'quv dasturlariga samarali integratsiyalashi, o'quvchilarning o'rganish tajribasi va nutq malakasini oshirishi mumkin.

Nutq kompetensiyasini takomillashtirishda filmlarning samaradorligini baholash talabalarning faolligi va tilni o'zlashtirishning turli jihatlari baholashni o'z ichiga oladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kino o'qitish rejimi bolalarning o'rganishga bo'lgan qiziqishi va motivatsiyasini sezilarli darajada oshirishi va shu bilan til faoliyatida faol ishtirok etishini rag'batlantirishi mumkin. Bundan tashqari, filmlar tildan foydalanish uchun haqiqiy kontekstlarni taqdim etadi, talabalarni maqsadli madaniyatga singdiradi va ularni ona tilida so'zlashuvchilarning talaffuzi, intonatsiyasi va suhbat uslublari bilan tanishtiradi. Ushbu ta'sir o'quvchilarga real hayotda tildan qanday foydalanishni yaxshiroq tushunishga yordam beradi va shu bilan ularning kommunikativ kompetensiyasini oshiradi. O'ylangan baholash orqali o'qituvchilar filmlarning nutq rivojlanishiga ta'sirini aniqlashlari va shunga mos ravishda o'qitish usullarini moslashtirishlari mumkin.

## XULOSA

Bugungi kunda dunyodagi o'quv jarayonlarida audio va video texnologiyalarining roli katta ahamiyat kasb etmoqda. Xorijiy tajribalarga asoslanib, zamonaviy axborot texnologiyalaridan – onlayn platformalar, mobil ilovalar, YouTube videolar, virtual sinflar, raqamli o'yinlar, ijtimoiy tarmoqlar va boshqalardan ingliz tilini o'rgatishda foydalanish, o'qitish usullarini yanada samarali va interaktiv qilishda sezilarli ijobiy natijalar beradi. Ushbu texnologiyalarning o'quv jarayoniga tatbiqi, ayniqsa nutqiy kompetensiyani rivojlantirishda katta imkoniyatlar yaratadi. Xorijiy olimlar, o'zlarining ilmiy ishlarida, ingliz tilini o'rgatishda audio va videomateriallarning samaradorligini ta'kidlaydilar. O'quv jarayonida audio va videolarning qo'llanilishi, o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini takomillashtirishga, ularning tilni o'rganishga bo'lgan ishtiyoqini oshirishga yordam beradi. Zamonaviy ta'lim texnologiyalarining bu turidagi metodlarni qo'llash, nafaqat o'qitishning sifatini oshiradi, balki o'quvchilarni yanada faol ishtirokchi, mustaqil fikrlovchi va ijodiy qarorlar qabul qiluvchi shaxslar sifatida rivojlantiradi. Chet tilni o'qitishda kommunikativ kompetensiya tushunchasi zamonaviy o'quv metodikasining asosiy komponentlaridan biri hisoblanadi. Bu, o'z navbatida, o'quvchilarning ijtimoiy-madaniy, lingvistik, va strategik kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan o'quv faoliyatlarini tashkil etadi. Xususan, audio va video vositalari yordamida til o'rgatishning samaradorligi isbotlangan, chunki ular autentik va real nutqiy vaziyatlar orqali o'rganish imkonini yaratadi.

Hozirgi kunda ingliz tilini o'rgatishda multimedia vositalarining qo'llanilishi yanada kengayib bormoqda. Bunda YouTube videofilmlari, podkastlar va boshqa audio-vizual materiallar o'quvchilarni real hayotdagi kommunikativ vaziyatlarga tayyorlashga yordam beradi. Bu kabi materiallar yordamida talabalar nafaqat tilni o'rganadi, balki, tilni ishlatish qobiliyatlarini ham rivojlantiradi. Shu bilan birga, o'qitishning raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilishi, o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini yanada yuqori darajaga ko'tarishga imkon yaratadi. Bu maqola, o'quv jarayonida audio va videolarning qo'llanilishining o'quvchi nutqiy kompetensiyasini

rivojlantirishdagi o‘rnini va bu texnologiyalar yordamida til o‘rgatishning samarali metodlarini o‘rganishga qaratilgan. Shuningdek, ingliz tilini o‘rgatishda YouTube va podkastlarning imkoniyatlaridan qanday foydalanish mumkinligini ko‘rsatadi.

### Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sulstonova, N. (2022). Talabalarning chet tilidagi kasbiy kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish. *Oriental Journal of Philology*, 68.
2. Kazarseva, O. K. (1997). Kommunikativnaya kompetentnost' i ee razvitie [Communicative competence and its development]. Moscow: Akademiya.
3. Leontev, A. N. (1975). Dejatel'nost', soznanie i rech' [Activity, consciousness, and speech]. Moscow: Pedagogika.
4. Moydinova, E. (2024, June). EFFECTIVE STRATEGIES FOR TEACHING IN THE DIGITAL AGE. In *Fergana state university conference*.
5. ResearchGate. (2023). The use of films as an innovative way to enhance learning. Retrieved from <https://www.researchgate.net>
6. Spring. 2014. Development Education Review. Using Film as an Educational Medium in British Schools. Retrieved from <http://www.developmenteducationreview.com>
7. Tsapro, G. Y., & Yakuba, V. V. (2015). Significant role of movies in efficacious teaching communicative competence (for the students of the English language departments). *Continuing Professional Education Theory and Practice*, 1–2, 64–67. [https://doi.org/10.28925/1609-8595.2015\(1-2\)6467](https://doi.org/10.28925/1609-8595.2015(1-2)6467) *Frontiers in Education*. (n.d.). The educational function of English children's movies. Retrieved from <https://www.frontiersin.org>
8. Xodjaev, N. 2022. Ta'lim muassasalarida filmlardan foydalanishdagi umumiy to‘siqlar. *Ta'lim va Innovatsiyalar Jurnali*, 15(3), 45-50.
9. Zaretskaya, E. N. (1991). Kommunikativnaya deyatel'nost' i ee razvitie [Communicative activity and its development]. Moscow: Izd-vo MGU.